

**24-NAZORAT TESTI.**

1. Noto'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Biosintetik reaksiyalar har bir individga xos xususiyat asosida farqlanadi.  
B) Tovus kaptar shamolga qarshi ucha olmaydi.  
C) Bankiv - tovuqning yovvoyi turi.  
D) Umrboqi, aravakash, bargi, buvaki, daroyi qovun navlaridir.

2. Lansetnik embrionidagi blastomerlar 8 taga yetishi uchun hujayralar necha marta meridional va ekvatorial bo'linishi kerak?

- A) 4 va 2 B) 4 va 3 C) 5 va 3 D) 2 va 1

3. Halokatlar nazariyasi muallifi kim?

- A) J. Kyuve B) F. Redi C) J. Lamark D) K. Ber

4. Odamlarda kichik jag' tishlarining bo'Imasligi dominant belgi sifatida nasldan-naslga o'tadi. Ona shu belgi bo'yicha sog'lom, ota esa geterozigotali bo'lgan oilada farzandlarning necha foizi genotip jihatdan ona organizmiga o'xshash bo'ladi?

- A) 50 B) 25 C) 75 D) 100

5. Magnoliyasimonlarga mansub o'simliklarni aniqlang.

- A) sachratqi, tamaki B) shirach, olg'i C) lola, bangidevona D) bo'yimodaron, xolmon

6. Amilaza fermentiga tegishli ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) fotosintezda asosiy hosil bo'ladigan modda; 2) unayotgan donlar tarkibida ko'p uchraydi; 3) o'simlik hujayrasida plazmolizni ta'minlaydi; 4) bargni rangsizlantirishda ishlatiladi; 5) moyli o'simliklarda ko'p uchraydi; 6) odam so'lagida ko'p bo'ladi; 7) kraxmalni shakargacha parchalaydi; 8) kraxmalga ta'sir ettirilganda eritma yod ta'sirida ko'k rangga kirmaydi  
A) 1,2,3 B) 1,2,3,5,7 C) 4,6,7,8 D) 2,6,7,8

7. Sinflar uchun tegishli ma'lumotlarni juftlab ko'rsating.

- a) qushlar; b) sudralib yuruvchilar; c) qisqichbaqasimonlar; d) suvda hamda quruqlikda yashovchilar; e) sutemizuvchilar;  
1) haqiqiy quruqlik hayvonlari; 2) dastlabki quruqlikda yashashga o'tgan hayvonlar; 3) birlamchi suv hayvonlari;  
4) dastlabki issiqqonli hayvonlar  
A) a-1; b-2; c-4; d-3 B) a-2; b-3; c-1; d-4 C) a-4; b-2; c-3; e-4 D) a-4; b-1; c-3; d-2

8. Zirhlilarga tegishli ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) hasharotxo'rlar turkumiga mansub; 2) oz tishlilar turkumi vakili; 3) suvda ham, quruqlikda ham uchraydi;  
4) sutemizuvchi hayvon; 5) Paleoarktik viloyatda ko'proq uchraydi; 6) Neotropik viloyatda tarqalgan  
A) 2,4,6 B) 1,3,4 C) 2,3,4,6 D) 2,3,4,5

9. Tadqiqotlarni ularni kashf etgan olimlar bilan juftlab ko'rsating.

- 1) gametalar softligi nazariyasining sitologik isboti 2) drozofila melanogaster belgilarining irsiylanishini o'rganish; 3) transformatsiya jarayoni; 4) transformatsiya hodisasining DNK ga bog'liqligi o'rganish  
a) Boveri va Setton; b) T.Morgan; c) O.Everi; d) Griffit  
A) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c B) 1-b; 2-c; 3-d; 4-a C) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d D) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c

10. Uglarodning tirik organizmlardan atmosferaga qaytarilishi jarayonlarini ko'rsating.

- 1) denitrifikatsiya jarayonida; 2) nafas olish jarayonida; 3) nitrifikatsiya jarayonida; 4) minerallashishning oxirgi maxsulotidan; 5) avtomobillarda yoqilgining yonishidan; 6) ishlab chiqarish korxonasi chiqindilaridan  
A) 1,2,4 B) 2,4,5,6 C) 1,2,3,6 D) 1,5,6

11. Ituzumdoshlar (I) va bug'doydoshlar (II) oilasiga mansub o'simliklarning kelib chiqish markazi bilan juftlang.

- 1) tamaki; 2) makkajo'xori; 3) soya; 4) beda; 5) arpa; 6) loviva; 7) qalampir; 8) kartoshka; 9) bug'doy; 10) sholi;  
a) Janubiy Osiyo tropik markazi; b) Sharqiy Osiyo; c) Janubi-g'arbiy Osiyo; d) O'rta Yer dengizi; e) Abissiniya;  
f) Markaziy Amerika; g) Janubiy Amerika  
A) I-1 -g, 7-f, 8-g; II-2-f, 5-e, 9-c, 10-a B) I-2-f, 5-e; II-3-g, 4-c, 5-a  
C) I-6-c, 7-a; II-7- a, 8-e, 9-g D) I-3-c, 4-b, 5-a; II-5-a, 7-e, 10-f

12. Ayrim hayvonlarda tovush kuchaytirgich vazifasini bajaradigan organlarini belgilang.

- 1) chirildoqning mo'yovlari; 2) baliqning yon chiziqlari; 3) baliqning suzgich pufagi; 4) baqaning o'rta qulog'i; 5) baqaning rezonatorlari; 6) erkak arining xartumchasi  
A) 1,3,4 B) 2,3,5 C) 3,4,6 D) 3,4,5

13. Quyidagi organizmlar orasidan fototroflarni ajrating.

- 1) chetan; 2) nitrifikatorlar; 3) kallima; 4) repishka; 5) arixo'r; 6) kalina; 7) qizilquyruq; 8) termit  
A) 1, 6 B) 3, 6 C) 3, 5, 7, 8 D) 1, 2, 5, 7

14. Yirtqich hayvonlar berilgan qatorni belgilang.

- A) burgut, planariya, urg'ochi chivin, zlatka  
B) sarisor, cho'rtan, boltayutar, tillako'z  
C) xonqizi, cho'rtan, sarisor, zlatka  
D) korsak, qashqaldoq, olaqo'zan, nutriya

15. Hujayra mitoxondriyasi uchun xos bo'lmagan xususiyatlarni ko'rsating.

- 1) bo'linish yo'li bilan ko'payadi, 2) turli to'qima hujayralarida soni doimiy emas; 3) faqat ko'p hujayrali organizmlarda uchraydi, 4) ichki membranasi burmali; 5) Go'lji majmuasidan hosil bo'ladi, 6) silliq membranalarida krista deyiladi  
A) 1,2,4 B) 3,5,6 C) 1,2,6 D) 1,4,6

16. Hujayra tashqi sitoplazmatik membranasi uchun xos xususiyatlarni aniqlang

- 1) to'lqinsimon tebranma harakat vujudga keladi; 2) hujayraning shaklini aniqlaydi; 3) hujayraning joyini o'zgarishini ta'minlaydi; 4) hujayra ichki tizimlari harakatini ta'minlaydi; 5) o'simta va burmalar hosil qiladi; 6) shikastlanganda tez tiklanish qobiliyatiga ega emas  
A) 2,3,5 B) 2,3,4 C) 1,5 D) 1,2,6

17. Oddiy qarag'ay (a) va archa (b) uchun xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang.

- 1) tez o'sadi; 2) sekin o'sadi; 3) tanasi, bargining tuzilishi bilan sharq sauriga o'xshaydi; 4) 1 uyli; 5) ikki uyli; 6) O'zbekistonda tabiiy holda o'sadi; 7) O'zbekistonda tabiiy holda o'smaydi, 8) toshloq yerda o'sadi; 9) urug'idan yaxshi o'sadi; 10) tangachalari qubbada halqa hosil qilib o'rnashgan  
A) a-1,7,9; b-3,5,6,8 B) a-1,3,5,9; b-2,3,5,6 C) a-2,3,5; b-2,5,7 D) a-3,4,10; b-5,6,8

18. Ta'riflardan qaysi biri bolaning rivojlanib borishi uchun noto'g'ri ifodalangan?

- A) 3 oylik bola kuladi, qo'llari bilan o'yinchoqqa talpinadi  
B) 8 oylik bola buyumlarni ushlab o'rnidan tura boshlaydi  
C) 5 oylik bola kuladi, yaqinlarini tanib boshlaydi  
D) 6 oylikda boshini tik tuta boshlaydi, bemalol o'tiradi, emaklaydi

19. Ganglionit kasalligi qaysi kasalliklardan keyin kelib chiqadi?

- 1-shamollash; 2-turli stress holatlarini o'tkazgach; 3-gripp; 4-ichburug'; 5-zotiljam; 6- nevrit; 7-poliomiyelit; 8-ichterlama.  
A) 1, 3, 4, 5, 8 B) 1, 2, 3, 5, 6, 7 C) 1, 3, 4, 7 D) 1, 3, 5, 7

20. Energiya almashinuvi bosqichlarida 2 mol glukoza to'liq va 3 mol glukoza to'liqsiz parchalangan bo'lsa, hosil bo'lgan energiyaning necha % i issiqlik sifatida ajraladi ?

- A) 40% B) 47% C) 60% D) 53%